



UO'K:

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.16970170>

SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUV SIFATIDA MONTESSORI TIZIMI

THE MONTESSORI SYSTEM AS AN INNOVATIVE APPROACH TO PERSONALIZED EDUCATION

СИСТЕМА МОНТЕССОРИ КАК ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К ПЕРСОНАЛИЗИРОВАННОМУ ОБРАЗОВАНИЮ

Soliyev Ilhomjon Sobirovich

*Farg'ona davlat universiteti Maktabgacha ta'lim kafedrası mudiri,
Pedagogika fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Qodirova Nozimaxon Qaxramonjon qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya.

Ushbu maqolada haxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi va uning amaliyotda qo'llanilishi, ayniqsa, Maria Montessori metodikasining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Montessori tizimining asosiy g'oyalari, didaktik materiallari, o'quv muhitining tashkil etilishi hamda bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, Montessori metodikasining maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichlaridagi samaradorligi bo'yicha tahlillar va amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *Montessori metodikasi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, bola rivojlanishi, innovatsion pedagogika, individual yondashuv, didaktik materiallar, o'quv muhiti, maktabgacha ta'lim, pedagogik texnologiyalar.*

Abstract.

This article analyzes the concept of person-centered education and its application in practice, in particular, the pedagogical possibilities of Maria Montessori's methodology. The main ideas of the Montessori system, didactic materials, the organization of the educational environment and its role in the comprehensive development of the child's personality are highlighted. Also, analyses and practical recommendations on the effectiveness of the Montessori methodology in preschool and primary education are presented.

Keywords: *Montessori methodology, person-centered education, child development, innovative pedagogy, individual approach, didactic materials, educational environment, preschool education, pedagogical technologies.*

Аннотация.

В статье анализируется концепция личностно-ориентированного образования и ее применение на практике, в частности, педагогические возможности методики Марии Монтессори. Освещены основные идеи системы Монтессори, дидактические материалы, организация образовательной среды и ее роль во всестороннем развитии личности ребенка. Также представлены анализы и практические рекомендации по эффективности методики Монтессори в дошкольном и начальном образовании.

Ключевые слова: *методика Монтессори, личностно-ориентированное образование, развитие ребенка, инновационная педагогика, индивидуальный подход, дидактические материалы, образовательная среда, дошкольное образование, педагогические технологии.*

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida: maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim–tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tadbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik, jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Bu qaror maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta’lim muassasalaridagi ta’lim-tarbiya jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, muassasalarni zamonaviy bilimlarga ega tarbiyachilar bilan to‘ldirish hamda ularda kasbiy malaka, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashuv hissini qaror toptirish, uzluksiz ta’lim tizimida olib borilayotgan isloxoatlarning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida qayd etilganidek, maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha malakali tarbiyachi va pedagog kadrlar bugungi kunda uzluksiz innovatsion izlanishda bo‘lishi, fikrlashi, shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasalarida ham innovatsion g‘oyalarni shakllantirish asosida faoliyat ko‘rsatishi zarur.

Hozirgi globallashtirish davrida chet el tajribasini o‘rganish maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlashda shuningdek bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini oshirish bolalarni har tomonlama tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘z navbatida bolalarni mustaqillikka o‘rgatish ularni erkin fikrlay oladigan etib tarbiyalab borish galdagi vazifalardan biridir. Bu borada M.Montessori metodikasi e‘tiborga loyiq.

Bolalar uchun o‘yinlar ixtiro qilish ishiga italyan pedagogi Mariya Montessori katta hissa qo‘shgan. XX asr boshida uning metodikasi bo‘yicha ishlagan Italiya va Fransiyadagi maktablarda ham u tomonidan ishlab chiqilgan o‘nlab o‘yinlardan foydalanilgan.

Montessori 5-10 yoshli bolalardan iborat 30-50 kishilik katta guruhlarda ishlagan. Pedagogning roli bolalarning mashg‘ulligiga e‘tibor berishdan iborat bo‘lgan. Shuningdek og‘zaki nizodan juda kam foydalanilgan. O‘sha paytda o‘ylab topilgan o‘yinlardan hozir ham foydalanish mumkin. Lekin ulardagi usul uslublari biroz o‘zgartirilgan chunki bu o‘yinlarni oilaga moslashtirganmiz. Bola pedagog bilan emas balki ota-onasi buvisi bilan uy sharoitida o‘ynashga moslashtirilgan.

Montessori o‘yinlaridagi harakatlar va usullar juda ko‘p vaqt oldin deyarli 100 yildan avval o‘ylab topilgan. Tabiiyki ularning hammasi ham hozirgi bolalarga to‘g‘ri kelmaydi. Montessori maktabida tarbiyalanuvchilarning ko‘pchiligi aqliy rivojlanishi sust ijtimoiy moslashuvda qiynaladigan bolalar bo‘lishgan. Hozirgi zamon bolalari uchun o‘yin materiali jihozlarini o‘zgartirib berish kerak.

Mariya Montessori metodi bolani tabiiy sharoitlarda kuzatish va u qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qilishga asoslangan. Metodning maqsadi: Tarbiyachi bola bilan ishlashda bolaning qiziqishini uyg‘otish hamda bu bilan bolani mehnatga o‘rgatish ko‘pchilik bilan ishlashga odatlantirish bolalarda nafosat hissini tarbiyalash kabi harakatlarini rivojlantirish.

Metodning bosh g‘oyasi: bolani mustaqil rivojlanishiga turtki berishdan iborat.

Montessori maktabida bola maxsus yaratilgan muhit yordamida mustaqil ta‘lim oladi. Montessori materiallarida bolaning o‘z-o‘zini nazorat qilish xatolarini o‘zi topib mustaqil tuzatishga sharoit yaratilgan. Kattalar bolani faqat yo‘naltirib zarur hollarda rag‘batlantirib turishadi. Ularning vazifasi bolalarga ta‘lim berish emas balki ularning mustaqil faoliyatiga rahbarlik qilib turishdan iborat.

Montessori metodining bosh shiori: “Buni mustaqil bajarishga yordam ber”.

Montessori tizimi har bir bolaga cheksiz tanlov erkinligini beradi. Unga asosan har bir bola bugun nima bilan shug‘ullanishini hal qilishni mustaqil ravishda tanlay oladi.

Montessori metodikasining yana bir o‘ziga xosligi turli yoshdagi bolalarning bir guruhda ta‘lim olishini tashkil etilishida. Turli yoshdagi bolalar bir-birlariga xalal berishmaydi aksincha yordamlashishadi.

Mariya Montessori Italiyada tug‘ilgan bo‘lib u o‘z mamlakati tarixida birinchi ayol –doktor bo‘lgan. U o‘zining ilk faoliyatini rivojlantirishda orqada qolayotgan bolalar bilan boshlagan. Bu bolalar asosan kambag‘al oilalardan bo‘lgan. U qo‘llagan metodlardan butun dunyo pedagoglari keng foydalanadilar. Bugungi kunda Qo‘shma

Shtatlarda ham uning sistemasiga nisbatan qiziqish kuchaydi. Ta’limning an’anaviy metodlari pand berib turgan bir paytda Montessori yo‘nalishi bolalar rivojlanishiga o‘ziga xos yondashuv nazariyasini ilgari surdi.

Montessori sistemasi bola shaxsi shakllanishi uchun zarur barcha sharoitlarni yaratish imkonini beradi.

Montessori sistemasida ta’lim olgan bolalarda o‘qishga nisbatan intilish ma’suliyatlilik, intizomlilik xislatlari oson shakllantiriladi. Bu bolalar mehnatsevligi, intiluvchanligi, xulqi –atvori ijobiyligi bilan ajralib turadilar.

Montessori metodi bolani har tomonlama rivojlantirishga yordam beradi. Mariya Montessorining bolalarga yondashuvi o‘ziga xos.

Montessori sistemasi uchta asosiy qismlardan tuzilgan: bola atrof –muhit va pedagog. Ta’lim jarayonida diqqat markazida bola turishi kerak. Mariya Montessori o‘z metodikasida bolani tabiiy sharoitlardagi kuzatuvlariga asoslangan.

So‘ngra doktor Montessori bolaning mustaqil rivojlanishi uchun tabiiy maxsus sharoitlar yaratdi. U ta’limda pedagogning o‘rnini o‘zgacha talqin etgan. Uning faoliyati ta’lim berish emas yo‘naltirishdan iborat bo‘lishi lozimligini uqtirgan. Shuning uchun “o‘qituvchi” so‘zi o‘rniga “rahbar” iborasini qo‘llagan.

Mariya Montessori bola qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qilishga xarakat qilgan. Montessori metodi bolaga bilish o‘rganish faoliyatini oson o‘zlashtirishga yordam beradi. Bilimni faoliyat orqali mustaqil olishga o‘rgatadi. Montessori metodikasiga asosan bola o‘ziga yoqqan o‘ziga qiziqarli bo‘lgan mashg‘ulotni tanlash erkinligiga ega bo‘ladi.

O‘z–bilim malakalarini takomillashtira borib bolada mustaqillik va o‘ziga ishonch ham rivojlanadi. Montessori metodi bolada ta’lim jarayoniga tabiiy intilishni yuzaga keltiradi. Ta’limning keyingi bosqichiga dadil ishonch bilan o‘tishga zamin tayyorlanadi. Bolaga uni o‘rab turgan muhit o‘qituvchilik qiladi. Montessori maktabida bola maxsus ishlab chiqilgan materiallarga tayanib bilim oladi. Ular sodda qiziqarli bolani mustaqil ishlashga undaydi. Ulardan foydalanganda bola uchun o‘z xatolarini o‘zi tuzatishiga imkoniyat yaratiladi.

Montessori fikricha, erkin tashkillashtirilgan muhitda tarbiyachining aralashuvisiz haqiqiy o‘qitish uchun imkoniyat ochiladi. Shuningdek, u muhitni shunday moslashtirishi kerakki, bolani ishga jalb qila olsin: predmet materiallari. yopiq shkaflarda emas past ochiq polkalarda turishi ular bolalar e’tiborini jalb qiladigan tartibda doim o‘z joyida saqlanishi kerak.



Shunda bola nima qayerda turishini qayerdan nima olishni tez eslab qoladi va u yoki bu predmetni qidirishga vaqt sarflamaydi. Tartib masalasida ular juda batartib bo'lishadi. Tartibli bo'lish esa ishdagi ijobiy omil hisoblanadi va omadni kafolatlaydi.

Didaktik materiallardagi narsalar miqdori tarbiyachi tomonidan aniq hisoblangan bo'lishi ortiq ham, kam ham bo'lmasligi kerak. Predmetlarning yetishmasligi ishga xalaqit beradi, ortiqchalik esa bolalarni keraksiz harakatlar bilan chalg'itadi, e'tiborini susaytiradi va nerv tizimini charchatadi. Bundan tashqari, tarbiyachi predmetlarning tozaligi va butunligini nazorat qilishi kerak. Singan buzuk narsalar tarbiya masalasida bolalarga salbiy ta'sir etadi. Mashqlar u yoki bu predmetning singani tufayli hech kanday natija bermaydi, ko'ngil sovushini keltirib chiqaradi hamda boladagi tabiiy va qimmatli intilishni so'ndiradi. Tarbiyachi bolaning talablariga quloq solishi va unga nafaqat og'zaki balki moddiy javob berishi kerak. Ba'zida bola biror materialni oladi unga qiziqish bilan yondoshadi ammo birozdan keyin xafsalasizlik bilan chetga surib qo'yadi. Bunday holda boladagi o'zgarishni sabr bilan kutish kerak. Bir ozdan keyin undagi bu qiziqish yana takrorlanadi. Bola boyagina o'zi rad etgan konvertcha yoki qutichani olib undan foydalanadi. Ba'zan bitta bolaga berilgan material boshqa bolaga ba'zida bir nechtasiga birvarakay yoqib qoladi. Bunday paytda bolalar o'z talablarini bildirishadi: bittasi yozish uchun, boshqasi o'qish uchun, uchinchi hisob va geometrik mashqlar uchun, yana biri tasviriyy san'at uchun yana biri tabiatni kuzatish uchun va h.k. larga material so'raydi. Bunday paytda pedagog har bir talabga yetarlicha javob berishiga to'g'ri keladi.

Imkon qadar har bir guruhda M.Montessori pedagogikasi asosida bolalar uchun ijodiy rivojlantiruvchi muhit yaratilishi lozim. Bunday muhitda kundalik ish faoliyati davomida bolalar o'zlarini erkin tutishlari, bir-biriga nisbatan xurmat, muhabbat, o'zaro

yordam berish kabi insonparvarlik tuyg‘ularini shakllantiruvchi fikrlar vositasida hayotiy faollikka erishadilar va o‘z qiziqishlari asosida taraqqiy etib boradilar.

Bolalarning mustaqil faoliyati rejalashtirilmaydi, u bolaning irodasiga qiziqishiga va kayfiyatiga bog‘liq.

Xulosa qilib aytganda, Montessori materiallarini bolaning aqliy rivojlanishi, jimoniy rivojlanishi va nutq o‘stirishlarida ta’siri katta. Montessori materiallari bolani kattalarga tobe’ bo‘lmasligi va o‘zini nazorat qilishga imkon beradi. Bola xatolarini o‘zi topishi va o‘zi to‘g‘rilashi kerakligini o‘rgatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. M.Montessori, Ilmiy pedagogika asoslari. Toshkent: Yangi asr avlodi, –2019.
2. M.Juraev, Pedagogik texnologiyalar va ta’lim jarayonini tashkil etish. Toshkent: Ilm ziyo, – 2020.
3. S.Turdiyev, Innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya, – 2018.
4. D.Abdullaeva, Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim: nazariyasi va amaliyoti. Samarqand: Ma’rifat, – 2021.
5. G.Bobomurodova, Maktabgacha ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar. Buxoro: O‘qituvchi, – 2022.
6. Z.Ergasheva, “Montessori metodikasi va uni ta’lim jarayonida qo‘llashning samarali jihatlari”. Pedagogika va psixologiya jurnali, №3, – 2021.